

**ВАЗОРАТИ МАОРИФ ВА ИЛМИ ҶУМҲУРИИ ТОҶИКИСТОН
ДОНИШКАДАИ ОМУЗГОРИИ
ТОҶИКИСТОН ДАР ШАҲРИ ПАНЧАКЕНТ**



**ПАЁМИ ДОНИШКАДА
ТАФАККУРИ ТАЪРИХ
АНВОРИ ИЛМ**

№2-3 - 2025

**ВЕСТНИК ИНСТИТУТА
ПОЗНАНИЕ ИСТОРИИ
СВЕТОЧ НАУКИ**

№2-3- 2025

**BULLETIN OF THE INSTITUTE
KNOWLEDGE OF HISTORY
LIGHT OF SCIENCE**

№2-3 - 2025

Нашри махсус/Специальное издание/Special edition



**Панҷакент-2025
[https:// Dotpanj.tj](https://Dotpanj.tj)**

МУАССИС:

Донишкадаи омӯзгорин
Тоҷикистон дар ш.Панҷакент, Ректор Ансорӣ
М.Қ.

ПАЁМИ ДОНИШКАДА/ ТАФАККУРИ
ТАЪРИХ/ АНВОРИ ИЛМ. №2-3 – 2025. – 742 с.
ВЕСТНИК ИНСТИТУТА/ ПОЗНАНИЕ
ИСТОРИИ/ СВЕТЛОЧ НАУКИ. №2-3 – 2025. – 742
с.

BULLETIN OF THE INSTITUTE/
KNOWLEDGE OF HISTORY /LIGHT OF
SCIENCE. №2-3 – 2025. – 742 s.

Нашри махсус/Специальное издание/Special
editio

Баъзе фикр ва хулосаҳои дар маҷалла омада бо
нуқтаи назари таҳририят созор наомадана
мумкин аст. Барои дурустии иқтибос, ҳавола,
пайнавиштҳои дараҷаи илмӣ, услуб ва баёни
мақолаҳо муаллифҳо масъуланд.

Мнение редколлегии не всегда совпадает с
мнением авторов. За достоверность цитат и ссылок,
научный уровень, стилистику статей ответственные
авторы.

The opinion of the editorial board does not always
coincide with the opinion of the authors.
The authors are responsible for the reliability of Citations and
references, the scientific level, and the style of the articles.

Дар вазорати фарҳанги Ҷумҳурии Тоҷикистон аз
10.04.2023 ба қайд гирифта шудааст (№1283/МҶ-97,
№284/МҶ-97, №285/МҶ-97)

Сардабир:

Воҳидов Шодмон, д.и.т., профессор
Муҳаррири масъул:
Шарифова Гулшарӣ, н.и.филол, дотсент

Котиби масъули шумора:

Тулқин Расулов (Донишгоҳи давлатии Бухоро)

Манзил:

735500, Ҷумҳурии Тоҷикистон, вилояти
Сугд, ш.Панҷакент, хиёбони Рӯдакӣ – 106. t-
mail: ramir555@inbox.ru

735500, Ҷумҳурии Тоҷикистон,
Вилояти Сугд, ш. Панҷакент, хиёбони Рӯдакӣ
106. Донишкадаи омӯзгорин Тоҷикистон дар
ш.Панҷакент.

ИНН-60001265; МҶО – 350101626

Кор.счёт-20402972316264

Расч.счёт – 20406840100006234000

Амонатбанк Донишкадаи омӯзгорин

Тоҷикистон дар ш.Панҷакент,

Тел: (+992) 92 768 16 66; (+992) 93 793 71 23

Веб-сайт: www.dotpanj.tj E-mail: tou@bk.ru

Ректор: Ансорӣ Муаззамхон Қудратзода

**ХАЙАТИ ТАҲРИРӢ/РЕДАКЦИОННАЯ
КОЛЛЕГИЯ:**

Раҳмонзода А., академик, Сафири Мухтор ва
Фавқуллодаи Ҷумҳурии Тоҷикистон дар Ҷумҳурии
Ўзбекистон

Азамат З., академики АФ Ҷумҳурии Ўзбекистон

Аминов Б., д.ф.т., профессор (Ўзбекистон)

Бадриддинов С., н.и.т. дотсент (Ўзбекистон)

Бекова Н.Ч. д.ф.филол., профессор (Ўзбекистон)

Бокӣ Набичон, нависанда (Ўзбекистон)

Ғаффоров Ш.С. д.ф.т., профессор (Ўзбекистон)

Ғойибов Б.С., д.ф.т., профессор (Ўзбекистон)

Джумаев М.И., н.ф.пед., профессор (Ўзбекистон)

Жумаев У.С., д.ф.равон. (Ўзбекистон)

Замонов А. Т., д.ф.т., профессор (Ўзбекистон)

Исакова М.С. д.ф.т., профессор (Ўзбекистон)

Қобулов Э.О., д.ф.т., профессор (Ўзбекистон)

Қурбонов Ш. Ф. н.и.бостон., профессор (Тоҷикистон)

Лурье П.Б., д.ф.филол. (Россия)

Мирзаев Н. М., д.ф.т., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаева Н.Ч. н.ф.т., дотсент (Ўзбекистон)

Мирзоюнус М.М.д.ф.ф., профессор (Тоҷикистон)

Муминово А.Қ., т.ф.д.профессор (Туркия)

Наврӯзова Г.Н. д.ф.фал., профессор (Ўзбекистон)

Наққош И., нависанда ва шоир (Тоҷикистон)

Намозов Б.Б., д.ф.т., (Ўзбекистон)

Нормуродова Г.Б. д.ф.т., профессор (Ўзбекистон)

Очилов А. Т., д.ф.т., (Ўзбекистон)

Пулатов М.Э., д.ф. иқт., профессор (Ўзбекистон)

Расулов Т.Х., Dsc аз фанни физика -математика,
профессор (Ўзбекистон)

Раҳимов Н., д.ф.т., профессор (Тоҷикистон)

Резван Е., д.ф.т.профессор. (Россия)

Саидов И.М., д.ф.т.профессор (Ўзбекистон)

Сангирова Д.Ч. н.ф.т. дотсент (Ўзбекистон)

Сафаров Т. Т., ф.н.дотсент

Чумаев Р.Ғ., Dsc аз фанни педагогика, профессор
(Ўзбекистон)

Ражабов Т.И., д.ф.пед, профессор (Ўзбекистон)

Рефаат Хусейн, доктори фанҳои филологӣ, профессор
(Миср)

Шодиева Ш., PhD аз фанни таърих, дотсент
(Ўзбекистон)

Халикова Р.Э. д.ф.т., профессор (Ўзбекистон)

Эргашев Ж.Ю. PhD аз фанни таърих, дотсент
(Ўзбекистон)

Эркинов А. С., д.ф.филол., профессор (Ўзбекистон)

Эркинова Н.Э. PhD аз фанни филология (Ўзбекистон)

Эрниязаров Ф.Н.д.ф.т. профессор (Ўзбекистон)

Эшов Б.Дж, д.ф.т., профессор (Ўзбекистон)


Эшонқулов И., н.ф.ф., дотсент (Ўзбекистон)

Нашри махсус

Специальный выпуск

Special edition

© ДОТП, “Анвори илм”, соли 2025.



Мундарица/оглавление
Мундарица/оглавление

№	Ному насаб	Номи мақола	Саҳ.
1.	Воҳидов Ш.	СУХАНЕ ЧАНД АЗ САРДАБИРИ МАҶАЛЛАҲО	3
2.	Abdiyev M. B. Mardiyev B. X.	SHAXSLAR NOMLARINING YUZAGA KELISH OMILLARI	4
3.	Abdujalilova M.O.	AHMAD DONISHNING ISLOHOTCHILIK G'OYALARI VA ULARNING G'ARB MODERNIZMI BILAN TAQQOSLANISHI	8
4.	Abdulxayrov D. P. Baliyeva N. A.	O'ZBEKISTONDA CHET TILINI BILISH DARAJASINI VAHOLASH ME'ZONLARI	12
5.	Abdurayimova M. T.	YANGI O'ZBEKISTONDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDAGI ISLOHATLAR	16
6.	Абдурахмонов М. А.	“СУНАНИ АБУ ДОВУД” АСАРИНИНГ ТАРКИБИЙ ТУЗИЛИШИ ВА ЁЗИЛИШ УСЛУБИДАГИ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАР	19
7.	Азизов Н. П. Умаров З. Р.	ҒАРБИЙ ТУРК ХОҚОНЛИГИНИНГ ТАРАҚҚИЁТ БОСҚИЧЛАРИ	24
8.	Анорова Ф.	МУНОСИБАТИ МИРЗО МУҲАММАДИ САЛИМБЕК НИСБАТ БА ҲАЁТИ СИЁСЇ ВА ҲАРБИЙ АМОРАТИ БУХОРО (АЗ РЎИ АСАРАШ “ТАЪРИХИ САЛИМЇ”)	31
9.	Atajanov M.I.	QADIMGI XORAZM HUDUDIDAGI MARKAZIY SHAHARLAR VA ULARNING QURILISH USHLARIGA DOIR BA'ZI MULOHAZALAR	33
10.	Atajonova A. J.	BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA MEDIATA'LIM ASOSIDA KOGNITIV FAOLIYATNI SHAKLLANTIRISH MECHANIZMI	41
11.	Atajonova A. J.	MEDIA TA'LIM VOSITASIDA TALABALARNING KOGNITIV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH – ZAMONAVIY TA'LIMNING USTUVOR YO'NALISHI	44
12.	Atajonova M. I.	O'ZBEKCHA MULOQOTDA MAYLNING OHANG ORQALI IFODALANISHI (G'OFUR G'ULOMNING “SHUM BOLA” ASARI MISOLIDA)	48
13.	Ahmedova N. F.	XIVADA YANGI USUL MAKTABLARI VA YOSH ZIYOLILAR FAOLIYATI	52
14.	Babaev M. T.	MAVLONO JALOLIDDIN RUMIY(BALXIY)NING “MASNAVIYI MA'NAVIY” ASARIDAGI “BO'RI BILAN TULKINING ARSLON PANOHIDA OVGA CHIQUISHGANI” HIKOYATI TAHLILI	57
15.	Babayev O. A.	THE FUNCTIONS OF LITERARY TRANSLATION IN THE 21ST CENTURY	62
16.	Усманова Э. Р. Бабаджанов Д. К.	ЗНАК-ОБЕРЕГ: АРХЕТИП СКВОЗЬ ВЕКА (ТРИ СЮЖЕТА)	67
17.	Beкова N J. То'qсанов Q. R. Ibroimova M. N.	“MINHOJ UN - NAJOT” DA NAFS TALQINI	73

Bekova Nazora Jo`rayevna⁷¹

**Buxoro davlat universiteti, o`zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, f.f.d.
bekova.nazora@mail.ru**

To`qсанov Qahramon Rahimboyevich

Buxoro davlat universiteti, o`zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, f.f.d.

Ibroimova Mahliyo Najmiddinovna

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

mahliyoibroimova9@gmail.com

“MINHOJ UN - NAJOT” DA NAFS TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqolada nafs insonning moddiy o`zligi, “men”I ekanligi, nafs ortidan chopadigan inson bir kun kelib uning asiriga aylanishi, nafsni yenga olishning asosiy omillaridan biri bu ma`naviy tarbiya ekanligi haqidagi fiklar bayon etilgan. Bundan tashqari, Alisher Navoiyning nafs haqidagi qarashlari, g`oyalari aks etgan asarlar va bu asarlardan misollar keltirilgan.

Kalit so`zlar: nafs, Odam Ato, Iblis, “Minhoj un- najot”, Najmiddin Kubro, komillik.

Аннотация. В данной статье излагаются идеи о том, что эго — это материальное «я» человека, его «я», что человек, который гонится за эго, однажды станет его пленником, и что одним из главных факторов преодоления эго является духовное воспитание. Кроме того, приводятся произведения Алишера Навои, отражающие его взгляды и идеи об эго, и примеры из этих произведений.

Ключевые слова: эго, Адам, Иблис, «Минходж ун наджот», Наджмиддин Кубро, совершенство.

Abstract. This article describes the ideas that the ego is the material self of man, his “I”, that a person who runs after the ego will one day become its prisoner, and that one of the main factors in overcoming the ego is spiritual education. In addition, Alisher Navoi's works reflecting his views and ideas about the ego and examples from these works are presented.

Keywords: ego, Adam, Iblis, “Minhoj un -najot”, Najmiddin Kubro, perfection.

Kirish. Nafs (arabcha qalb, ko`ngil; inson; maqsad, intilish; g`urur, mag`rurlik) – 1) yeyish-ichish va mol-dunyoga bo`lgan ehtiros; 2) shahvoniy hirs. Nafs insonning moddiy o`zligi, “men”idir. Tilimizda bu so`zning sinonimi yo`q. Nafs ortidan chopadigan inson bir kun kelib uning asiriga aylanadi. Inson nafsni o`z vaqtida jilovlay olishi kerak, aks holda moddiy va ma`naviy xatolarga yo`l qo`yib, juda yomon ahvolga tushib qoladi. Nafsni yenga olishning asosiy omillaridan biri bu ma`naviy tarbiyadir. Shu o`rinda aytishimiz lozimki, insonlarning ham ikki xili bor. Birinchisi- o`zini, oila a`zolarini, farzandlarini va atrofdagilarni o`ylab ish tutadigan, faqat hozirni emas oxiratni ham o`ylaydigan insonlardir. Ikkinchisi- esa dunyo noz-ne`matlariga haddan ziyod mehr qo`ygan, hech kimni o`ylamaydigan, faqat o`z manfaatlarini ustun qo`yadigan, nafs qulu bo`lgan kimsalardir. [7]

Sharq mutafakkirlarining e`tiroficha, shaxsiy manfaatini boshqalar manfaatidan ustun qo`ygan kishi xalq va davlat xizmatida ko`p vaqt qola olmaydi. Chunki atrofdagilar buni ma`lum vaqtdan keyin sezib qolishadi, albatta. Xudbin kishi jamiyat va xalqning manfaatini emas, faqat o`zini o`ylagani uchun ham davlat va xalq xizmatida qololmaydi. Shuning uchun

⁷¹ Панжакент шаҳридаги Тожикистон педагогика институтининг Фахрий профессори/

mas'ul shaxslar, yetakchilar, eng avvalo, nafs tarbiyasi maktabini o'tagan bo'lishi kerak. Alisher Navoiy bu haqda shunday yozgan:

“Chun menga lutf etti shah devonda muhr,
Bu edi eldin quyi muhr urmog'im,
Kim g'ururi nafi sarkash ma'nig'a,
Barchadin bo'lg'ay quyi o'lturmog'im.
Chun shikasti nafs hosil o'lmadi,
Mundin o'ldi muhrni sindurmog'im”.

Shoirning fikricha inson nafsini jilovlay olmasa, u o'zini ochko'zlik va yolg'ondan ham tiya olmaydi. Uni bu ishlarni qilishga ta'ma undaydi. Shunday ekan inson birinchi navbatda ta'madan yiroq bo'lishi kerak. Shoh devonida muhrdor davraning to'rini emas, balki poygakni ko'zlashi kerak. Agar nafsini jilovlay olmasa, “muhrni sindirmog'i” lozim. Nafs insonning mohiyatiga yarashmaydigan qiliqdir.

Adabiyotlar tahlili. Har bir yomon amalning boshida nafs turadi. Shu sababli ham mumtoz adabiyotda buyuk ijodkorlar o'z asarlarida insonlarni bu yo'ldan qaytarishga, nafsni yengishga harakat qilishadi. Jamiki yaratilgan narsalarning eng yomoni nafsdir. Najmiddin Kubroning “Ko'nglim ko'zi bilan ko'rganlarim” asarida shunday deyiladi:

“Dunyo va uning bezaklari, havas va shayton, hamda ularga bog'liq bo'lgan narsalardan uning ko'p yordamchilari bo'lib, har bir yordamchisining dunyoviy hayotni bezatuvchi narsalardan lashkarlari va xizmatchilari bor. Misol suratda ko'p yemoq, ko'p uxlamog, ko'p kulmog, oshiqlik qissalarini tinglamog, dunyoni sevmog, boylikni tanlamog, takabburlik, hasad, g'iybat, yomonlik bilan shug'ullanmog, ichimliklar ichib gunohga qo'l urish, turli o'yinlarga berilib, foydasiz ishlarga urinish, mol-mulk yig'ib istaklar va orzular ipini cho'zish, yomonlikka buyurib, yaxshiliqdan voz kechtirish, istak-havas va surur (xursandchilik), imorat va tijorat (uy-joy qurish va savdo)ga ko'ngil bog'lab yomonni yaxshilash; boshqalar sir-asrorlarini fosh etish, chegaradan (axloq va odob chegarasidan) chiqish, botildan yordam so'rab haqni inkor etish, dunyoparastlarga hurmat bildirib, oxirat ahдини haqorat qilish, shular jumlasidandir”. [9. 169-170-b]

Inson o'z nafsini butun umr tarbiya qilishi lozim. Alisher Navoiy asarlarida ham bu g'oya asosiy o'rinda turadi.

Gadoi maykadai ishq boshu shohi kun,
Maxoh xostai nafsu harchi xohi kun.
(Ishq mayxonasining gadosi bo'lu, podshohlik qil!
Nima istasang qilu, nafsingning so'ziga kirma!)

Bu misralarda davat ruhi yetakchilik qiladi. “Quroni karim” manbasidagi yoki mumtoz adabiyot na'munalari Yassaviy ijodiga, Kubro, Rumi asarlariga murojaat qilsak ham xuddi shunday uslubning yetakchilik qilishini sezamiz. Nafs va aql bir-biriga dushmandir. Aql ibodatga yetaklagan payt ko'z-u ko'ngil unga ergashadi. Agar ko'z-u ko'ngil nafsning domida qolsa zulmatda yo'lsiz qoladi. Uni poklashning birdan-bir yo'li esa chin ibodatdir. Navoiy quyidagi misralarida aynan shu ma'noni nazarda tutgan:

Zn nafi tira, ilohi, chu nest roh ba tu,
Juz in chi chora, ki oram az o' panoh ba tu?
(Tangrim, zulmat nafs jihatidan senga borishga yo'l topolmagach,
u badnafsdan panohingga sig'inishdan boshqa nima choram bor?)

Nafsni zulmatga qiyoslagan shoir o'z lirik qahramoniga ibodatni chora qilib ko'rsatadi. Navoiy asarlaridagi nafs obrazi, ko'pincha, insonni malomatga qo'yuvchi vijdon azobi ma'nosida qo'llaniladi va nafsni eng katta dushman sanaydi:

Bo'lub nafsingga tobi', band etarsen tushsa dushmanni,
Sanga yo'q nafsdek dushman, qila olsang ani qil band. [4.]

Navoiyning “Minhoj un najot” qasidasida ham nafsga juda chiroyli ta’rif berilgan. Nafs haqida asosli fikrlar, misollar keltirilgan. “Minhoj un najot” qasidasining boshlanma qismi Tangri taolo tomonidan Hazrati Odamning yaratilishi, uning Havo bilan jannatda baxtli hayot kechirishi va Odam atoning ta’rifi bilan boshlangan. Qasidaning 11 bayti Odam tuprog’ining farishtalar tomomnidan keltirilishi, vujudining Olloh ilmi bilan tiklanib, aqlu donish va bilim suvi bilan qorilgani, Alloh ilmiga musharraf bo’lgani uchun barcha mavjudotlar aziz ekanligi, maloikalarning unga sajda qilgani, ammo Iblis kibri balandligi sabab unga sajda qilmagani aytilgan. Navoiy Iblisni “vahshiy qush” deb ataydi. Inson esa Olloh oldida aziz zot bo’ldi. Tangrining xalifasi bo’ldi. Ammo Iblis qasd olish uchun ma’n etilgan narsani Odamga yedirdi va Olloh Odamni jannatdan quvib chiqarib yubordi. Shoir buni afsus va achinish bilan tilga oladi:

Namedonam chi shud bo on, ki Haq “lotaqraba” farmud,
Girifti bo rafiqat nukta on dushmani joni?
Magar z-on ro`z gandum sinai xud chok zad z-on g`am,
Ki az chi dushmanat farmud tarki babda farmoniy.

(Bimadim, nima bo’ldiyu Haq “uzoqlashim” deb buyurdi. Sen axir nega rafiqning (Havo) bilan jonlar dushmani Iblis so’ziga kirdilaring.... O’sha kundan beri, ya’ni sizlar bug’doy yegandan beri bu g’amdan bug’doyning siynasi chok(bug’doy donasidagi yoriqqa ishora), dushmaning (Iblis) senga farmonga bo’ysunmaslikni o’rgatdi, sen negadir hiylani anglamading. Navoiy aslida nima demoqchi? Uning fikricha bu Nafs edi. Nafs balosi insonni komillikdan, jannat rohatidan dunyo biyoboniga quvg’in qildi.

Natijalar va Muhokama. Qasidada Odamning jannatdan quvilishi buyuk bir fojia sifatida talqin etiladi. Jannatdan haydaliş bu - poklik olamidān, ruhlar olamidān, Tangri huzuridan haydaliş, Bu rohatdan azobga, maloikalikdan hayvoniylikka tomon harakat deb qaraladi. Shunisi quvonarliki, Olloh taolo bandalarini yaxshi ko’radi, agar insonlar yaxshi amallar qilib, savob ishlar qilsalar, toat- ibodatda bo’lsalar, yana jannatga qaytarishga va’da beradi. Bundan tashqari Olloh insonlarni yer yuzidagi barcha narsalarga qo’riqchi- posbon qilib qo’ydi: Vale mulki jahonro yofti hukmi jahonboni (Jahon mulkiga jahonbonlik hukmini topding). Ammo bundan-da muhimroq jihati bor. Navoiy qasidaning asosiy qismini inson nuqsonlarini ochib ko’rsatish va bu nuqsonlardan qanday qilib qutulish haqida yozadi, insonni komillik sari, axloqiy- ma’naviy kamolot sari kurash olib borishga da’vat etadi. Qasidada nafs yo’lida din-u iymonidan kechgan, har qanday holatda ham boylik orttirishni o’ylaydigan, yolg’on va aldovni hayot qoidasiga aylantirgan odam qiyofasi chizilgan. Qasidaning har bir baytida bitta salbiy xususiyat g’oyat ta’sirchan vamos-muvofiq o’xshatish yoki istiora bilan ochib beriladi. Ba’zan bitta yomon illat bir nechta bayt orqali ham tasvir etiladi. Asarda butun insoniyat haqida, insonlardagi jamiki nuqsonlar, tubanliklar haqida gap borgan.

Navoiy o’zini nafsī zolimga banda bo’lganlar qatoriga qo’shadi. Lekin u qanday ulug’ inson edi, uning umr yo’li savob-u ezguliklar yo’li edi. Uning asarlaridagi ezgu va nurbaxsh g’oyalar, uning minglab odamlarga yetkazgan muruvvati, adolat poydorligi uchun qilgan amallari mana asrlarkim, ibrat va namuna bo’lib kelmoqda. U hayotda insoniylik timsoli edi. Biroq shunday inson ham o’zini begunoh, barkamol hisoblamagan, u yana uch narsani urg’ulab, umid qiladiki, shoyad Parvardigor shu uch narsani inobatga olib, gunohlarini kechirsa. Shoir ta’kid etadi:

Isyon-u noqislik paydo bo’lganda, bu biln kechirilmasdan, bil’aks, tavba qildim,
pushaymon bo’ldim.

Fe’limda qusur yuz berganda ham Rasuli akram (SAV)ga dildan sadoqat ko’rsatib,
“hamisha rahmoniy tavfiq bilan komil bo’ldim”.

Hazrati Maxdum(Jomiy) xizmatini ado etib turdim.

Hazrat Navoiyning o’zini “zulmoniy nafs”ga giriftorlar qatoriga qo’shishi qasidaning umumlashtiruvchilik xususiyatini oshirib, ta’sirchanligini yana ham kuchli qilishga sabab

bo'lgan. Umuman shoirning ushbu qasidani yozishidan maqsadi, odamlar qalbini uyg'otish, gumrohlik, g'ofillikdan ogohlantirish edi. Buni Navoiy asar oxirida o'zi ta'kidlagan:

Musalsal z-ibtidoi ofarinish to bad-in soat,
Suxan dar yak qasida rondam az ro'i suxandone.
Ba har baytash kitobe darj kardam-sarbasar hikmat
Ba har yak durj pinhon soxtam sad gavhari kony
Bayoni holi xud z-insof kardam, v-on gah avsofash
Buvad ham bahra girad az tavajjuhoi vijdoniy
Chunon bedor kardam ahli olamro az in gulbong,
Ki n-oyat xobashon to hashr az ando'hu pazmoniy.

(Odamning yaratilish ibtidosidan shu damgacha bo'lgan bir silsilada, bir qasidada suxandonlik bilan bitdim. Har bir baytga boshdan-oyoq hikmatdan iborat bir kitob ma'noni joyladim va har bir sandiqcha ichiga yuz gavhar donalarini soldim. Insof yuzasidan o'z holimni ham bayon etdim, chunki har qachon o'quvchi mening fikr-u andishalarimdan boxabar bo'lsin, vijdoni qo'zg'alsin. Bong urib, olam ahlini shunday uyg'otdimki, Qiyomatgacha anduh va sog'inchdan uyqulari kelmagay.) [3. 56-65-b]

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Navoiy komil inson qiyofasini yaratish uchun insonga eng birinchi nafsini yengishi kerakligini o'z asarlari g'oyasiga singdirgan va badiiy adabiyotning tarbiyaviylik funksiyasini ijodining eng oldingi shartlaridan biri deb bilgan. Navoiyning forsiy qasidalari ham shunday qarashni ifodalaydi. Ammo bu qarashlar hamon ahamiyatini yo'qotmagan, hamon inson o'sha kasalga muhtalodir. Navoiyning so'zlari shu bois bugun yozilgan yangi asarday jaranglab turibdi. Uning faryodiga biz bugun ham quloq solishimiz, ibrat olib, o'zimizni ma'naviy o'nglashimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Адабий мерос. Хужжат ва тадқиқотлар. Тошкент: Фан, 1968, 300 б.
2. Бекова Н. Навоёна ҳассослик.-Тошкент: Фан, 2008, 102 б.
3. Иброимова М. "Sittai zaruriya" nashrlari va ularda irfoniyl mohiyat talqinlari. Magistirlik dis...., 2021, 56-65-b.
4. Jo'rayeva M. Alisher Navoiy ijodida nafs tarbiyasi. " Fan va ta'lim" xalqaro ilmiy-metodik, elektronjurnal, 2020
5. Комилов Н.Хизр чашмаси. – Тошкент: Маънавият, 2005.
6. Навоий Алишер. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. 20-том. . -Тошкент: Фан, 2003, 350 б.
7. Oyina.uz internet sayti
8. Қодирова М. Алишер Фоний қасидалари// Филол. фан.ном...дис. -Тошкент, 1969, 240 б.
9. Shermataliyev O. Tasavvuf ta'limotida nafs tarbiyasi. "Iqro" jurnali, 2023, 169-170-b. ISSN: 2181-4341

Бекова Н. Ж.
Солнев Ф. Ф.

“МУЖИЗА” ДЕТЕКТИВ РОМАНИДА ЖИНОЯТ КОНСЕПТИ ВА УНИНГ ТАРБИЯВИЙ-АХЛОҚИЙ ҶУРНИ

Аннотация: Ушбу мақолада Омон Мухторнинг “Мужиза” детектив романида жиноят тушунчасининг бадий талқини ва унинг асар композитсиясидаги тарбиявий ва ахлоқий вазифаси таҳлил этилади. Асар мазмунида тасвирланган “қотиллик” жинояти асар қахрамонлари нуқтаи назари орқали турли ижтимоий-маданий масалалар очиб берилди. Сюжетдаги жиноят тушунчаси муаллиф нуқтаи-назариди фақат